





CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*2022- yil yanvar holatiga ko'ra
dastlabki ma'lumot*




Sirdaryo viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi **296,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan **9,6 %** ga ko'paydi. Shu jumladan, yirik korxonalar tovar aylanmasi **20,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **158,2 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **276,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **107,1 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **26,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **103,3 %**) tashkil etdi.


Chakana savdo aylanmasi tarkibi, foizda



O'sish sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mln. so'm





UZBEKISTAN

HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

ENG YUQORI ULUSH

Guliston sh.
119,5

Sirdaryo viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Guliston shahri **40,2 %** ulush bilan **119,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Sirdaryo
50,8

Mirzaobod
22,7

Yangiyer sh.
27,4

Oqoltin
14,6

Sayxunobod
11,6

Sardoba
9,9

Guliston
12,7

Boyovut
15,7

Xovos
8,4


Shirin sh.
3,7

UMUMIY MA'LUMOT

2022- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi **296,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan **109,6 %** ni tashkil etdi.

ENG QUYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Shirin shahri **1,3 %** ulush bilan, **3,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	296,9	109,6	20,8	158,2	276,1	107,1
Guliston sh.	119,5	110,8	8,9	145,2	110,6	108,8
Shirin sh.	3,7	105,2	0,0	58,3	3,7	105,4
Yangiyer sh.	27,4	106,6	1,6	84,2	25,7	108,4
<i>tumanlar:</i>						
Boyovut	15,7	170,5	6,2	11,8 m.	9,5	109,5
Guliston	12,7	109,2	0,7	2,6 m.	12,0	105,7
Mizaobod	22,7	114,8	0,6	114,6	22,1	114,8
Oqoltin	14,6	106,3	0,2	118,0	14,4	106,2
Sardoba	9,9	77,1	0,2	87,1	9,7	76,9
Sayxunobod	11,6	93,3	0,4	90,8	11,2	93,5
Sirdaryo	50,8	107,1	1,9	66,9	48,8	109,6
Xovos	8,4	120,7	0,1	140,3	8,3	120,4

2021- yilga nisbatan ayrim hududlarda chakana savdo aylanmasi o'sishi kuzatildi. Yuqori ko'rsatkichlar Guliston sh (**110,8 %**), Mirzaobod (**114,8 %**), Xovos (**120,7 %**) va Boyovut (**170,5 %**) tumanlarida qayd etildi.

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilga nisbatan **158,2 %** ga o'sdi va **20,8 mlrd. so'mni** tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,0 %** ulushiga to'g'ri keladi.

Yirik korxonalar , foizda



Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda

Boyovut 6,2
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd.so'm


39,4

Guliston sh. 8,9
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd.so'm

7,4


Yangiyer sh. 1,6
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd.so'm

5,9





CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, foizda

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **276,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning tegishli davriga nisbatan **7,1 %** ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **93,0 %** ni tashkil etdi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi yuqori ulushga ega hududlar, foizda

Shirin sh. 3,7
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd.so'm


99,7


Xovos 8,3
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd.so'm

98,6

Sardoba 9,7
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd.so'm


98,4





CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foizda

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Shirin sh. (99,7 %), Sardoba (98,4 %), Oqoltin (98,5 %), Xovos (98,6 %), Sayxunobod (96,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston (7,4 %), Yangiyer (5,9 %) shaharlarida, Guliston (5,3 %), Sirdaryo (3,8 %) va Boyovut (39,4 %) tumanlarida kuzatildi.



AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar oyi holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **341,4** ming so'mni (2021- yilning mos davriga nisbatan **7,5 %** ga ko'paydi) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqorisi Guliston shahri (**1 293,0** ming so'm), Yangiyer shahri (**612,1** ming so'm) va Sirdaryo (**386,9** ming so'm) tuman hissasiga to'g'ri keldi.

	Hajm, ming so'm	2021- yilga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	341,4	107,5
Guliston sh.	1 293,0	109,0
Shirin sh.	196,1	104,0
Yangiyer sh.	612,1	104,5
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	117,8	167,6
Guliston	168,6	106,6
Mirzaobod	298,1	112,0
Oqoltin	274,3	104,3
Sardoba	146,3	75,7
Sayxunobod	146,7	91,6
Sirdaryo	386,9	105,4
Xovos	85,8	118,4



1	Guliston sh, 1 293,0
2	Yangiyer sh, 612,1
3	Sirdaryo, 386,9
4	Mirzaobod, 298,1
5	Oqoltin, 274,3
6	Shirin sh, 196,1
7	Guliston, 168,6
8	Sayxunobod, 146,7
9	Sardoba, 146,3
10	Boyovut, 117,8
11	Xovos, 85,8

Eng yuqori hajm, ming so'm




Eng quyi hajm, ming so'm


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **26 382,2** mln. so'mni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan **3,3** % ga ko'paydi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **11 587,5** mln. so'mni (o'zgarish sur'ati **155,6** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **14 794,7** mln. so'mni (o'zgarish sur'ati **74,4** %) tashkil etdi.

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi, foizda



Uyushmagan savdo tovar aylanmasida ulushi katta hududlar, foizda



Tovar aylanmasi ulushi va hajmi

Uyushmagan savdo

26 382,3 mln. so'm, 100 %

Dehqon bozorlari

11 587,5 mln. so'm, 43,9 %

Chorva bozorlari

14 794,7 mln. so'm, 56,1%

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022 - yilning yanvar oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **11 587,5** mln. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **14 794,7** mln. so'mni tashkil etdi.

* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mln. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mln. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mln. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	26 382,2	103,3	11 587,5	155,6	14 794,7	74,4
Guliston sh.	3 758,4	95,8	3 758,4	96,0	0,0	0,0
Shirin sh.	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Yangiyer sh.	689,5	128,3	689,5	128,3	0,0	0,0
<i>tumanlar:</i>						
Boyovut	1 246,2	265,2	1 246,2	2,6 m.	0,0	0,0
Guliston	3 763,4	105,7	322,3	3,8 m.	3 441,1	90,1
Mirzaobod	2 539,8	355,9	0,0	0,0	2 539,8	3,2 m.
Oqoltin	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Sardoba	4 313,5	57,3	1709,1	15,1 m.	2 604,4	31,9
Sayxunobod	4 749,1	79,5	1 041,3	152,5	3 707,9	63,8
Sirdaryo	2 820,8	182,1	2 820,8	183,0	0,0	0,0
Xovos	2 501,5	194,0	0,0	0,0	2 501,5	2,1 m.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2022- yilning yanvar oyida viloyatimizning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **11 587,5** mln. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm don mahsulotlari (Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari) mahsulotlari savdosiga (**3 674,8** mln. so'm) to'g'ri keldi.



356,6
mln. so'm

Tuzlamalar



36 74,8
mln. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



1 136,9
mln. so'm

**Quritilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

991,8
mln. so'm



Tovuq go'shti

14 98,4
mln. so'm



**Non va non
mahsulotlari**

578,7
mln. so'm



Tuxum

1 481,8
mln. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

151,5
mln. so'm



Ziravorlar

589,3
mln. so'm



**Sut va sut
mahsulotlari**

575,1
mln. so'm



**Chorva mollari va parrandalar
uchun har xil yem-xashaklar**


553,0
mln. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari** (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mln. so'm

2022- yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **14 794,5** mln. so'mni tashkil etdi. Bunda har hil yoshdagi qora mollar savdosi **12 777,1** mln. so'mni, qo'y va echkilar **1 684,2** mln. so'mni, otlar **327,6** mln. so'mni, parrandalar **5,6** mln. so'mni tashkil etdi.



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


2022-yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,8 %** ni tashkil etib, **8 206,6** mln. so'mga yetdi va 2021- yilga nisbatan **5,7 %** ga ko'paydi.

	Jami, mln. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda	Yakka tartibdagi tadbirkorlik mln. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	8 208,6	105,7	7 258,2	105,8	950,4	105,1
Guliston sh.	4 137,0	106,5	3 869,5	106,5	267,5	106,3
Shirin sh.	141,6	101,8	125,0	101,7	16,6	102,0
Yangiyer sh.	628,0	105,9	479,9	105,9	148,1	105,8
<i>tumanlar:</i>						
Boyovut	138,6	100,3	80,4	100,8	58,3	99,7
Guliston	292,2	103,8	232,3	103,6	59,8	104,9
Mirzaobod	980,7	104,7	950,2	104,7	30,4	105,5
Oqoltin	204,5	104,2	160,2	104,1	44,3	104,7
Sardoba	134,5	104,6	91,3	105,4	43,2	102,7
Sayxunobod	239,0	104,4	192,7	104,2	46,2	105,4
Sirdaryo	1 241,1	106,2	1 024,6	106,3	216,4	105,6
Xovos	71,6	102,7	52,0	102,3	19,6	104,1


ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **137 131,4** mln. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **1,0 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **6 217,3** mln. so'mni (**115,8 %** ni) tashkil etdi.


Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Ulgurji savdo tovar aylanmasi, foizda



ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Guliston (3,5 m.) Shirin (116,2 %) shahlarida va Guliston (149,1 %), Sirdaryo (2,8 m.) tumanlarida kuzatildi.

	Jami, mln. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda	Kichik biznes subyektlari, mln. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	137 131,4	99,0	6 217,3	115,8	130 914,1	98,3
Guliston sh.	63 165,7	100,1	1 268,8	97,6	61 897,0	100,1
Shirin sh.	208,7	73,6	0,0	0,0	208,7	73,9
Yangiyer sh.	3 641,0	91,6	44,5	0,0	3 596,6	90,5
<i>tumanlar:</i>						
Boyovut	2 979,4	208,8	2 014,2	4,7 m.	965,2	96,2
Guliston	2 018,5	94,8	471,8	133,6	1 546,7	87,0
Mirzaobod	9 743,2	96,5	402,5	81,5	9 340,7	97,3
Oqoltin	1 235,7	102,2	402,5	114,0	833,2	97,4
Sardoba	1 996,8	88,4	463,1	93,5	1 533,7	87,0
Sayxunobod	6 461,3	85,5	460,0	108,6	6 001,3	84,1
Sirdaryo	43 443,4	99,0	345,0	44,9	43 098,4	100,0
Xovos	2 237,6	85,4	345,0	45,7	1 892,6	101,5